

SHARQ MUTAFAKKIRLARINING OILADA FARZANDLARNI TARBIYALASH TO'G'RISIDAGI QARASHLARI

Nazokat Sobirjonova

Namangan davlat pedagogika instituti

70110101 pedagogika nazariyasi va tarixi 2-bosqich magistranti

Email: sobirjonovanazokat306@gmail.com

Annotatsiya. Ushbu maqolada Sharq mutafakkirlarining oilada farzand tarbiyasi masalasiga oid qarashlari tahlil etiladi. Sharq pedagogikasida va boy ma'naviy merosida oilaning muhim tarbiya maskani sifatida e'tirof etilishi, farzandning axloqiy, ma'naviy va aqliy kamolotida ota-ona mas'uliyati alohida o'rin tutishi muammosi pedagogik va psixologik nuqtai nazardan yoritilgan. Alisher Navoiy, Ahmad Donish, Yusuf Xos Hojib, Abu Nasr Forobiy kabi mutafakkirlarning asarlarida tarbiya, odob, bilim va insoniy fazilatlarni shakllantirishga doir g'oyalari tahlil qilingan.

Kalit so'zlar: Sharq mutafakkirlari, tarbiya, oila, farzand, axloq, ma'naviyat, milliy qadriyatlar, pedagogik, psixologik.

ВЗГЛЯДЫ ВОСТОЧНЫХ МЫСЛИТЕЛЕЙ НА ВОСПИТАНИЕ ДЕТЕЙ В СЕМЬЕ

Аннотация. В данной статье анализируются взгляды восточных мыслителей на воспитание детей в семье. В восточной педагогике и богатом духовном наследии с педагогико-психологической точки зрения освещена проблема признания семьи важным местом воспитания, особой роли родительской ответственности в нравственном, духовном и интеллектуальном развитии ребенка. В произведениях таких мыслителей, как Алишер Навои, Ахмад Дониш, Юсуф Хос Хожиб, Абу Наср Фараби, проанализированы идеи воспитания, нравственности, знаний и формирования человеческих качеств.

Ключевые слова: Восточные мыслители, воспитание, семья, ребенок, нравственность, духовность, национальные ценности, педагогическая, психологическая.

VIEWS OF EASTERN THINKERS ON CHILD-REARING IN THE FAMILY

Abstract. This article analyzes the views of Eastern thinkers on child-rearing in the family. In Eastern pedagogy and rich spiritual heritage, the problem of recognizing the family as an important place of upbringing, the special role of parental responsibility in the moral, spiritual, and intellectual development of a child, has been illuminated from a pedagogical and psychological point of view. In the works of such thinkers as Alisher Navoi, Ahmad Donish, Yusuf Khos Khojib, Abu Nasr Farabi, the ideas of upbringing, morality, knowledge, and the formation of human qualities were analyzed.

Keywords: *Eastern thinkers, upbringing, family, child, morality, spirituality, national values, pedagogical, psychological.*

KIRISH

Har bir xalqning ma'naviy-axloqiy boyligi, uning kelajagi va taraqqiyoti avvalo oilada beriladigan tarbiyaga bog'liqdir. Oila- inson shaxsining shakllanishi, uning axloqiy, ruhiy va ijtimoiy fazilatlarining poydevori qo'yiladigan muqaddas maskandir. Shu boisdan ham Sharq mutafakkirlari qadimdan farzand tarbiyasiga alohida e'tibor berib, bu borada chuqur pedagogik va psixologik qarashlarni ilgari surganlar.

Abu Nasr Forobiy, Abu Ali Ibn Sino, Alisher Navoiy, Ahmad Donish, Kaykovus, Sa'diy, Yusuf Xos Hojib singari allomalar asarlarida farzandni yoshligidan to'g'ri tarbiyalash, unda ezgulik, mehnatsevarlik, odoblilik, halollik va vatanparvarlik fazilatlarini shakllantirish masalalari chuqur tahlil qilingan. Ularning fikricha, bolaning ruhiy olami va axloqiy qiyofasi avvalo oiladagi muhit, ota-onaning namunasi va mehr-muhabbati orqali shakllanadi.

Psixologik nuqtai nazardan esa, Sharq donishmandlari bolaning ruhiyatiga e'tibor bilan yondashish, uning yosh xususiyatlari, qiziqishlari va ehtiyojlarini inobatga olishni tarbiyaning asosiy sharti sifatida ko'rsatganlar. Ular tarbiyada majburlashdan ko'ra, tushunish, rag'batlantirish va samimiy munosabatni ustun qo'yganlar.

ADABIYOTLAR TAHLILI VA METODLAR

Har bir inson oilada kamolga yetadi. Uning kelajakda qanday inson bo'lib yetishishi shu oiladagi muhitga har jihatdan bog'liq. Prezidentimiz Shavkat Mirziyoyev ta'kidlaganidek, oilaga e'tibor-o'zligimizga e'tibordir. Oilani saqlab qolmasak, biz o'zligimizni yo'qotamiz. Mamlakatimizda oilalar mustahkamligini, ularda ijtimoiy-ma'naviy muhit barqarorligini ta'minlash, jamiyat farovonligini yuksaltirishga qaratilgan tizimli islohotlar amalga oshirilmoqda. Konstitutsiyamizda ham oila to'g'risida alohida bob ajratilib, oila manfaatlari muhofaza qilinayotganligi va oila mustahkamligi tamoyillari belgilanib, kafolatlanganligi bejiz emas.

Oila-jamiatning ajralmas bo'lagi. Biror bir xalq, millat yoki jamiat yo'qki, u o'zining rivojlanish tarixida va taraqqiyot istiqbolini belgilashda oila va uning atrofidagi muammolarni, qadriyatlarini inobatga olmagan bo'lsa. Har qanday istiqbol oilaning manfaatlaridan ayro tasavvur qilinmaydi. Zero, har bir inson uchun oila-bu umrning boshlanishi, barcha narsalarning muqaddimasidir. Qolaversa, har bir inson o'z baxti va saodatini eng avvalo oilasi bilan bog'laydi, ya'ni, o'z uyi, oilasida baxtli bo'lgan insongina o'zini to'laqonli bahtiyor his etadi.

Farzandlarni ma'naviy va ruhiy jihatdan sog'lom qilib tarbiyalash masalasi azal-azal davrlardan boshlab barcha olimu fuzalolarni qiziqtirib kelgan masalalardan biri sanaladi.

NATIJALAR VA MUHOKAMA

Zardushtiylikning qadimiy kitobi sanalgan «Avesto»da oilaning muqaddas dargoh ekanligi, oilaning totuvligi va barqarorligini ta'minlashda er va xotinning baravar xarakat qilishi lozimligi, to'g'risidagi qimmatli fikrlar yuritilgan. Oilaning tinch va farovon bo'lishi qanday omillarga bog'liq ekanligi haqida gapirilib, «Porso, inson uy tiklab, olovga, oilasiga, xotin va farzandlariga o'rin ajratib bersa, uyida noz-ne'matlari muhayyo bo'lib, xotin va farzandlari farovon yashasa, uyida e'tiqod, sobit olovi alangali, boshqa narsalari ham mo'l-ko'l bo'lsa, o'sha manzil muhtaramdir», - deb yozilgan bo'lib, oilaning mustahkamligi farzandlarning kelgusidagi taraqqietiga ham bog'liq ekanligiga ishora qilinadi.

Sharq mutafakkirlarining pedagogik psixologik qarashlarida bolaning ma'naviy jihatdan yetuk bo'lib rivojlanishida oilaning tutgan o'rni masalasiga alohida e'tibor qaratilgan. Jumladan Abu Nasr Farobiyning asarlarida aytilishicha haqiqiy inson haqiqiy baxt nima ekanligini oila a'zolarining bir-birlariga samimiy munosabatlarida hamda ularning bir-birlariga bo'lgan mehru oqbatlarida ko'ra oladi deya ta'riflab, har bir ota-onaning o'z farzandlari uchun birlamchi ustoz, yo'l ko'rsatuvchi ekanliklari va aynan ular bolada ta'lim-tarbiyaga kerakli tayyorgarlik holatini shakllantirish ta'siriga ega ekanligi to'g'risida ta'kidlab o'tgan.

Buyuk olim ensiklopedist Abu Rayhon Beruniy ham o'zining ko'pgina asarlarida inson odobi va axloqi xususidagi noyob fikrlarini qoldirgan bo'lib, «Minerologiya», «Geodeziya», «Hindiston», «O'tgan avlodlar obidaları» nomli

asarlarida inson shaxsi, uning kamoloti, aql- idroki, halovat va lazzati, sabr-toqat va kamtarlik, go'zallik va did, poklik va xudbinlik kabi tushunchalarga inson ruhiyatining bilimdoni sifatida ta'rif bergan. Abu Rayhon Beruniyning qarashlarida oiladagi totuvlik va mustahkamlik haqida fikrlar bildirilgan bo'lib, har bir oilada «ozodalik va orastalik olijanoblikning o'zagi» bo'lishi kerakligini uqtiradi, insonning tashqi yoqimli qiyofasi bilan uning axloqiy qiyofasi o'rtasidagi bog'liqlik haqida gapirib, «tishni yuvib, ko'z va qovoqlarni toza tutish, ularga surma qo'yish, sochni esa zarur bo'lganda bo'yab, tirnoqlarni olib turish va silliqlash» inson salomatligi va ruhiy pokligining asosidir, deb ta'kidlaydi. Bu fikrlar hozirgi zamonda ham o'z dolzarbligini yo'qotgani yo'q, chunki oila a'zolarining, er- xotinning ushbu ko'rsatmalarga amal qilishi oila totuvligining zaminlaridan biridir.

Beruniy ustozlari izidan borib, o'zining gumanistik qarashlari bilan oila psixologiyasi faniga munosib hissa qo'shdi. U insonlar o'rtasida o'zaro bir-birlarini tushunish, tenglik va boshqaruvda adolatni himoya qilib chiqdiki, bu qarashlar bizning davrimizda ham o'z ahamiyatini yo'qotgani yo'q.

Oilaviy munosabatlar va bu sohaga oid qarashlar tizimida Abu Ali ibn Sinoning ham qimmatli fikrlari, bu boradagi barcha hodisalarning ilmiy mohiyatini ochib berishga qaratilgan. Ibn Sinoning pedagogik va psixologik qarashlari ijtimoiy asosda qurilgan bo'lib, u bola tarbiyasida umuminsoniy tamoyilning qo'llanilishini yoqlab chiqqan va tarbiyachi ota-onalarga bolani qattiq tana jazosidan ko'ra, shaxsiy ibrat orqali tarbiyalash ma'qulligini uqtirgan. Uning «Donishnoma», «Risolayi ishq», «Tib qonunlari», «Uy xo'jaligi» kabi qator asarlari O'rta Osiyo xalqlari axloq-odobi, psixologiyasi va tabobat olamida alohida o'rin tutgan yirik ilmiy tadqiqotlar hisoblanadi.

Ibn Sinoning oila va oilaviy munosabatlar masalasi xaqidagi «Tadbiri manzil» asari o'ziga xos tarzda bayon etilgan bo'lib, unda oilaviy munosabatlarning turli tomonlarini yoritilgan. U oila boshlig'i, ham nazariy, ham amaliy jihatdan oilada tarbiya masalalarini mukammal o'zlashtirgan bo'lishi lozimligiga to'htalib agar oila boshlig'i tajribasiz bo'lsa, u o'z oila a'zolarini yaxshi tarbiyalay olmaydi, oxir-oqibat u yaxshi ijobiy natijalarga erisha olmaydi, yomon tarbiya nafaqat ushbu oila, balki qo'shnilariga, mahalla-ko'yga ham yomon ta'sir qilishi mumkin. Oiladagi bola

tarbiyasi ota-onaning jamiyatda tutgan mavqeyidan qat'i nazar, ularniig birlamchi vazifasidir, deb hisoblaydi. Ota-ona davlat boshlig'imi yoki oddiy fuqaromi, baribir, u bola tarbiyasi borasida mas'uldir. Davlat boshliqlari, rahbarlar bola tarbiyasi xususida barchaga ibrat bo'lmoqlari lozim ekanligini ta'kidlaydi.

XULOSA

Xulosa o'rnida shuni ta'kidlash joizki sharq mutafakkirlarining oila, oilada er-xotin munosabatlari, oilada bolalar tarbiyasi xususidagi qimmatli fikrlari hanuzga qadar o'zining qiymatini yo'qotmagan. Chunki oilaviy munosabatlarning mustahkam bo'lishi, er va xotin o'rtasidagi munosabatlarning, o'zaro hurmat va bir-birini tushunishga asoslanmog'i, bu narsa o'z navbatida farzandlar tarbiyasiga ijobiy ta'sir ko'rsatishi .oilaning mustahkamligi va baxtli bo'lishi aynan oila qurganlarning ham ijtimoiy, ham iqtisodiy jihatdan yetukliklariga va ayniqsa, yigitning oila qurishga tayyorgarligiga bog'liqligi e'tirof etiladi.

Demak, Sharq mutafakkirlarining oilada farzand tarbiyasiga oid g'oyalari bugungi zamonaviy pedagogika va psixologiya fanining muhim nazariy asoslaridan biri bo'lib, ularning merosi hozirgi kunda ham yosh avlodni har tomonlama barkamol inson etib voyaga yetkazishda beqiyos ahamiyat kasb etadi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

- 1.Sh.M.Mirziyoev.“Xotin qizlarni qo'llab quvvatlash va oila institutini mustaxkamlash sohasidagi faoliyatini tubdan takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida”gi farmoni 2018 yil 2-fevral
- 2.Akramova F. A, Abdullayeva R. M. Sharq mutafakkirlarining oila xususidagi qarashlari.T.: «Shams ASA», 2002.
- 3.Рахимов С Абу Али ибн Сино таълим тарбия ҳақида Тошкент Ўқитувчи 1967 й
4. Форовий. Рисолалар. – Т.: Фан, 1975
5. Тўрақулов Э., Рахимов С. Абу Райхон Беруний руҳият ва таълим-тарбия ҳақида. – Тошкент: Ўқитувчи, 1992. – 78 б.
- 6.Ғаззолий Абу Ҳомид. Кимийи саодат: (Рух ҳақиқати). – Тошкент: Адолат, 2005. – 412 б.